

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISH

Usmonalieva Potima Zokirovna

2- sonli Davlat Maktabgacha ta'lim tashkiloti Tarbiyachisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning og'zaki nutqini o'stirishda pedagogik metodlardan foydalanish haqida ma'lumot beriladi

KALIT SO'ZLAR: ta'lim-tarbiya, pedagogik va intellektual, og'zaki usullar, badiiy asar, ko'rgazmali qurol

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimining birinchi – maktabgacha ta'lim rivojining zamonaviy bosqichi qator o'zgarishlar bilan tavsiflanadi: maktabgacha ta'lim ochiq turdagi ta'lim muassasasi sifatida shakllandi; maktabgacha ta'lim muassasalarining eng muhim funksiyasi bolalarning hayotiy faoliyatini muhofaza qilish va salomatligini mustahkamlash; tarbiyalanuvchilarni maktab ta'limiga muvafaqiyatli tayyorlash Mamlakatimiz yoshlariga erta ta'lim-tarbiya berish mas'uliyatini hozirda yurtimizda faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim muassasalari o'z zimmasiga olgan. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bilimlarni berish shakli mashg'ulotdir. Mashg'ulotlar jarayonida bolaning nutqi rivojlanib, undagi grammatik va fonetik qirralari sayqallanib, til boyligi oshib borish bilan bir qatorda undagi psixologik va intellektual jihatlari rivojlanib boradi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida 5 ta muhim soha bo'yicha bolalarga ta'lim-tarbiya saboqlari berib boriladi. Bulardan eng asosiysi «Nutq o'stirish mashg'ulotlari» desak mubolag'a bo'lmaydi.

ASOSIY QISM

Nutq o'stirish mashg'uloti jarayonida eng qulay usullarni tanlashi va takomillashtirishi lozim. Pedagogik adabiyotlarda nutq o'stirish usullari quyidagicha tasnif qilinadi;

1. So'z yoki og'zaki usullar.
2. Ko'rsatmalilik usullari.
3. Amaliy usullar.
4. O'yin usuli.

Og'zaki usulda bolalarga beriladigan bilim, malaka va ko'nikma tarbiyachining so'zi, tushuntirishi, hikoya qilishi, tasvirlashi, suhbatlashishi, o'qib berishi, yoddan aytishi orqali shakllantiriladi. Jumladan, tarbiyachi og'zaki usullardan foydalanganda aniq, lo'nda fikrlashi, gap va so'zlarni aniq qilishi, savollarni aniq, qisqa tuzishi va unga bolalarning oson javob topishini o'ylashi lozim.

Og'zaki usullar o'qib berish, hikoya qilib berish, yoddan aytish, suhbat, savol-javob usuli kabilardir. O'qib berish, hikoya qilib berish, yoddan aytish usullari badiiy adabiyot, bolalar folklori materiallarini o'rgatish, she'rni yod oldirishda qo'llaniladi. Suhbat usuli maktabgacha ta'limda eng ko'p qo'llaniladigan, eng qulay usul bo'lib, berilgan mavzu yo'zasidan savol-javob tarzidagi muloqotdir, ya'ni bolalar bilim, malaka, ko'nikmani tarbiyachi savollariga javob berish orqali egallaydilar. Shuning uchun tarbiyachi savollarni qisqa, aniq, bolalarga tushunarli bo'lishi, ularning javob bera olish malakasini nazarda tutgan holda tuzishi, zarur o'rinlarda yo'llovchi savollar berishi, bolalarning ham savollarga aniq, lo'nda javob bera olishga erishishi lozim.

Suhbat o'yinchoq, buyum, narsa, rasm, bolalar ko'rgan-kuzatgan, o'zlari ishtirok etgan voqea-hodisalar, tevarak-atrof, tabiat, badiiy asar mazmuni yuzasidan bo'lishi mumkin.

Suhbat usuli qadimiy usullardan bo'lib, XI-XII asrda yashagan buyuk alloma, qomusiy olim Burxoniddin Zarnuji o'qitishning ko'satmali tajriba, amaliy (mashq, takrorlash) nazorat usullari bilan birga, so'zlash uslublari, bilimni bayon qilish, hikoya qilish, savol-javob o'slubini ham tavsiya etadi.

Suhbat usulining afzalligi shundaki, mashg'ulotda bolalar ham, tarbiyachi ham faollik ko'rsatadi, o'zaro hamkorlik bir-birini qo'llab-quvvatlash, o'zaro fikrlash, bilimni nazorat qilish, uni tuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi, bolalar ta'limda sub'ekt va ob'ekt sifatida ishtirok etadilar. Og'zaki usullardan foydalanish bolalarni maktabga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, og'zaki usullar bolalarni kattalar bilan nutqiy muloqotga kirisha olishi, ularning savollarga javob berishi, hozirjavoblik, nutqni ifodali, tartibli bayon etish, nutq me'yorlariga rioya qilishni o'rgatish bilan birga ularni maktabga tayyorlash, xotirasini shakllantirishga xizmat qiladi, ya'ni eshitib eslab qolish xotirasini rivojlantiradi.

Ko'rsatmalilik usuli. Bu usulda o'quv materiali ko'rgazma, texnik vositalar, turli didaktik materiallar asosida o'rgatiladi. Ko'rsatmalilik usuli maktabgacha ta'limda eng ko'p qo'llaniladigan usullardan biridir. Ko'rsatmalilik usulida bolalar narsa, buyum, voqea hodisani ko'rish, kuzatish, rasm-illyustratsiyalarni ko'rish, sayr ekskursiyadagi kuzatishlari asosida mulohaza qiladi, fikrlaydi va nutqni bayon qiladi. Bu usulda guruh xonasidagi buyumlar, tabiat burchidagi o'simlik, gul va hayvonlar, qushlarni kuzatishi, kattalar mexnati, tevarak - atrofdagi voqea-hodisalar ko'rgazmali qurollar yordam beradi

O'yin usuli. Maktabgacha ta'limda o'yin usulining bir necha turi keng qo'llaniladi, ya'ni didaktik o'yin, so'z o'yini, harakatli o'yin, rolli, mazmunli o'yin kabilar nutq o'stirishda muhim ahamiyatga egadir. Masalan,

—Bu uyda kim yashaydi,

—Nima o'zgardi,

—Kimga nima kerak,

—O'yinchoqlar do'koni,

—Hikoyani kim davom ettiradi

kabi didaktik o'yinlar bolalarning so'z boyligini oshirish, boshlang'ich nutqini o'stirish, nutqning tovush madaniyatini shakllantirishga yordam beradi

Amaliy usul. Amaliy usulning asosiy maqsadi bolalar egallagan bilimlarni amalda qo'llash, nutqiy malakasini oshirishdan iboratdir. Amaliy usulda bilim va malakalar mashq qilish, topshiriqni mustaqil bajarish orqali, oddiy tajribalar o'tkazish kabi amaliy faoliyatda egallanadi, amaliy usulda ko'rgazmalilik usuli, so'z usuli birgalikda qo'llaniladi va nutq o'stirishning barcha vazifalarini bajarishda ishtirok etadi, bolalar mustaqil ravishda topshiriqlarni bajaradi, nutq uchun so'z va gapni o'zi amaliy izlanish orqali topadi; bolalarning xonani tozalashi, kitoblarni tartibga keltirishi, o'yinchoqlarni ta'mirlashi, tabiat burchagidagi mexnat faoliyatida amaliy usuldan foydalaniladi, ular o'zi bajargan ishlarni so'z va gap orqali ifodalaydilar. Amaliy usulda bolalarning xotirasi, tafakkuri, ishlash qobiliyati shakllanadi, mustaqil faoliyat, mustaqil fikrlashi o'sadi, tevarak-atrofdagi hayotga, kattalar mexnatiga qiziqishlari, qadriyatlarimizga xurmati ortib boradi, kasb egallashga doir amaliy malakalari shakllanadi.

Har bir nutq o'stirish faoliyatida markazlarda ishlash orqali bilimlari mustaxkamlab boriladi. Bolalar o'tilgan mavzudan kelib chiqqan holda markazlarni o'zlari tanlab ishlashadi. Masalan ; Uy va yovvoyi

xayvonlar bilan tanishtirib ovozig a taqlid qilishdi asosiy mavzu o'tib bo'lingandan so'ng bolalar markazlarga bo'linishadi. Qurish yasash va matematika markazida origami usulida hayvonlarni yasash, yasab bo'lganlaridan so'ng bolalardan nima yasagani qayerda yasashi qanday ovoz chiqarishi so'raladi. San'at markazida ; rasmini chizish, qirqib yopishtirishadi. Nutq va til markazida; mavzuga oid she'r yodlashadi, hayvonlar ovozig a taqlid qilishadi Markazlarda ishlashda bolalarning Yoshi hisobga olingan holda topshiriqlar beriladi.

XULOSA

Nutq o'stirish nafaqat bolaning so'z boyligini oshirish, balki uning muloqot qobiliyatini rivojlantiradi, undagi bilish jarayonlarining, shu jumladan bolaning tafakkurini o'stirishda ham muhim vosita bo'lib hisoblanadi. Hozirgi paytda maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishga yanada yuqori talablar qo'yilmoqda. Bu talablarga javob berish nutqni rivojlantirishga oid yangi izlanishlarni taqozo etadi .

Adabiyotlar

1. Babayeva D. R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. –Toshkent, 2018. –334 b.
2. Nishonova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. –T.: "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi", 2006. — B. 68.
3. Qodirova F. R., Toshpo'latova Sh.Q., Qayumova N. M., A'zamova M. N. Maktabgacha pedagogika. – T.:“Tafakkur”, 2019. –B. 107.
4. Zokirova, S.M. (2016). About the congruent phenomenon in the contrastive linguistics. Sciences of Europe , (8–2 (8)).
5. Зокирова С. М. Контрастный анализ синтаксических слойных установок. Вестник Наманганского государственного университета: Vol , 1 (8), 48.